

## YAPONIYANING SHARQIY OSIYO VA YAQIN SHARQDAGI “YASHIL ENERGETIKA” DIPLOMATIYASI

**Oqiliddin Alimov**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,  
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

[oqiliddin@mail.ru](mailto:oqiliddin@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

*Iqlim o'zgarishi tufayli yuzaga kelayotgan murakkab muammolar va global tendensiyalarga javoban davlatlar barqarorlikka erishish maqsadida o'z energetika strategiyalarini qayta ko'rib chiqmoqdalar. Ushbu yo'nalishda Yaponiya hukumati ham o'z sa'y-harakatlarini amalga oshirmoqda. Yaponiyaning 2050 yilgacha mo'ljallangan “sof nol emissiyalar” (“Net Zero”) strategiyasi qator muhim siyosiy va iqtisodiy omillar ta'sirida shakllanmoqda. Ular qatorida mamlakatning milliy energiya resurslarining cheklanganligi, geografik jihatdan murakkab joylashuvi, demokratik bo'lmagan davlatlarga bog'liqligi hamda geosiyosiy beqarorliklarga nisbatan yuqori darajadagi zaifligi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada ushbu strategiyalarning Yaponiyaning energetika xavfsizligiga, Yaqin Sharqdagi muhim energiya resurslari eksportyorlari bilan munosabatlariga hamda Sharqiy Osiyo mintaqasidagi yetakchilik rolga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *“yashil energetika” diplomatiyasi, “Yashil” transformatsiya (GX) tashabbusi, “Yashil o'sish strategiyasi”, 2050 yilgacha mo'ljallangan “sof nol emissiyalar” (“Net Zero”) strategiyasi, energetika xavfsizligi, energiya resurslari diversifikatsiyasi.*

### ABSTRACT

*In response to the complex challenges and global trends arising from climate change, states are reassessing their energy strategies in pursuit of sustainable development. In this context, the Government of Japan has also intensified its efforts toward energy transition and decarbonization. Japan's “Net Zero Emissions by 2050” strategy is being shaped by a range of significant political and economic factors. Among the most prominent are the country's limited domestic energy resources, its geographically complex location, its dependence on non-democratic states for energy supplies, and its heightened vulnerability to geopolitical instability. This article analyzes the implications of these strategies for Japan's energy security, its relations with major energy exporters in the Middle East, and its leadership role within the East Asian region.*

**Keywords:** *green energy diplomacy; Green Transformation (GX) initiative; Green Growth Strategy; “Net Zero Emissions by 2050” strategy; energy security; diversification of energy resources.*

## **KIRISH**

Energetika va iqlim sohalari tez sur'atlarda o'zgarib borayotgan bugungi zamonda barqaror va ishonchli energiya manbalarini ta'minlash masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Energiya ta'minoti, tarmoqlar o'zaro bog'liqligi, energetik xavfsizlik bilan bog'liq xavotirlar va geosiyosiy dinamikalar iqlimga oid siyosat va amaliy chora-tadbirlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur omillarning ta'sirini to'g'ri anglash iqlim o'zgarishiga mos mukammal va kompleks yondashuvlarni ishlab chiqishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xalqaro tizim ko'pincha beqaror va murakkab bo'lgani sababli, davlatlar o'zlariga xos sharoitlarga mos ravishda turli xil chora-tadbirlarni qo'llashi mumkin. Bunday murakkab muhitda karbon neytrallikka o'tish jarayonini jadallashtirish uchun turli texnologik imkoniyatlarni saqlab qolish va rivojlantirish juda muhim hisoblanadi. Yaponiyaning 2050 yilgacha bo'lgan strategik rejasida energetika sohasida Yaqin Sharq davlatlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida vodorod texnologiyalarini rivojlantirish hamda Sharqiy Osiyo mintaqasida "yashil vodorod"ni ilgari surish bo'yicha tashabbuslar alohida o'rin tutadi. Yaponiyaning 2050 yilgacha mo'ljallangan "sof nol emissiyalar" ("Net Zero") strategiyasi qator muhim siyosiy va iqtisodiy omillar ta'sirida shakllanmoqda. Ular qatorida mamlakatning milliy energiya resurslarining cheklanganligi, geografik jihatdan murakkab joylashuvi, demokratik bo'lmagan davlatlarga bog'liqligi hamda geosiyosiy beqarorliklarga nisbatan yuqori darajadagi zaifligi alohida ahamiyat kasb etadi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida xalqaro-huquqiy hujjatlar, hukumatlararo kelishuvlar, ilmiy maqolalar hamda ekspertlik xulosalaridan foydalanildi. Xususan, Tanaka N. "Comment on Japan's Post-Fukushima Energy Policy Challenges". *Asian Economic Policy Review*, 2013., 8(2); Watanabe R. "Breaking Iron Triangles: Beliefs and Interests in Japanese Renewable Energy Policy". *Social Science Japan Journal*, 2021., 24(1); Yamamoto, S. "Japan's new industrial era - I. Restructuring traditional industries". *Long Range Planning*, 19(1); Yokota, T. *Japan-Egypt Bilateral Relations: A Main Pillar of Japanese Middle Eastern Policy*. In *Japan and the Middle East: Foreign Policies and Interdependence*, Satoru Nakamura and Steven Wright Palgrave Macmillan 2023; Evron Y. *Implications of China's Belt and Road Initiative for Japan's Involvement in the Middle East*. *Contemporary Review of the Middle East*, 5(3), 2018. Shuningdek, mavzuga oid ommaviy axborot vositalaridagi ma'lumotlardan ham keng foydalanildi.

Maqolada nazariy-metodologik, statistik tahlil va tizimlashtirish tamoyillari, shuningdek, qiyosiy, tizimli tahlil kabi usullardan foydalanildi.

## **NATIJALAR VA MUHOKAMA.**

1980-yillarda Yaponiya o'zining birinchi muqobil energiya to'g'risidagi qonunini qabul qildi, bu qonunda energetika kompaniyalariga qayta tiklanadigan energiya va tabiiy gazdan foydalanish majburiy qilindi. Keyinchalik, "yashil energiya jamiyati"ni yaratish maqsadida Yaponiya 2017 yilda asosiy gidrogen strategiyasini

ishlab chiqdi<sup>1</sup>. Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi Yaponiyaga yaqinligi va qayta tiklanadigan energiya manbalariga boyligi tufayli Yaponiyaga vodorod yetkazib beruvchi sifatida katta potensialga ega<sup>2</sup>, bu jihat Yaponiya Tashqi ishlar vazirligining 2024 yildagi **“Yaponiya Energetika diplomatiyasi strategiyasi va yondoshuvlari”**da ham o‘z aksini topgan. Agar bu mintaqada vodorod ishlab chiqarilib, Yaponiyaga yetkazilsa, mamlakatning energiya importi diversifikatsiya qilinib, an’anaviy yoqilg‘ilarga bog‘liqligi kamayadi. Bundan tashqari, qayta tiklanadigan elektr energiyasi va gidrogen manbalariga ega bo‘lish Yaponiyaning energetika xavfsizligini mustahkamlaydi. Shuningdek, Yaponiyada yashil gidrogen texnologiyalarini ishlab chiqarish Janubi-Sharqiy Osiyoda energiya sanoatining dekarbonizatsiya qilish imkoniyatini beradi<sup>3</sup>.

Yaponiya Sharqiy Osiyo davlatlariga mintaqaning o‘ziga xos sharoitlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda amaliyotga tatbiq etish mumkin bo‘lgan dekarbonizatsiya siyosatlarini ishlab chiqishda yordam berishi mumkin. Bu yordam moliyaviy va texnologik qo‘llab-quvvatlash, ma’lumot almashish, infratuzilma, transport, sohadagi qonunchilik me’yorlari va xavfsizlik borasida umumiy standartlarni ilgari surish kabi shakllarda bo‘lishi mumkin. Sohadagi muammolar yechimlarini aniqlash va chuqur tadqiqotga asoslangan bosh rejalar ishlab chiqilishi mumkin. Shu bilan birga, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi muloqot energetika transformatsiyasi jarayonida muhim ishtirokchilarning hamkorligini mustahkamlash va muvofiqlashtirishga yordam beradi.

Sharqiy Osiyo davlatlarining geografik yaqinligi va qayta tiklanadigan energiya resurslari Yaponiya uchun o‘zaro manfaatli sheriklikni rivojlantirishda strategik afzallik hisoblanadi. Maqsadli tashabbuslar orqali bu hamkorlik mintaqada barqaror energiya texnologiyalarining keng joriy etilishini tezlashtirishi mumkin. Ushbu mintaqada xavfsizlikka qaratilgan ittifoqlarga nisbatan umumiy salbiy munosabat mavjud. Yaponiyaning asosiy texnologiya kompaniyalari qayta tiklanadigan energiya sohalariga sarmoya kiritish bilan birgalikda energiya xavfsizligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynashi, Yaponiyaning tashqi siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, shu bilan birga “yashil” jamiyatga o‘tish jarayonini tezlashtiradi.

Ikkinchi tomondan, Yaponiya hukumati 2010 yildan 2024 yilgacha bo‘lgan davrda yoqilg‘i importiga taxminan 1,8 trillion AQSh dollari sarmoya kiritgan bo‘lib, bu mamlakat YaIMsining yillik o‘rtacha 3%dan ortig‘ini tashkil etadi. Bu importlarning katta qismi Yaqin Sharq davlatlariga to‘g‘ri keladi. Yaponiyaning Energetika strategiyasida Yaqin Sharqning neft ishlab chiqaruvchi davlatlari bilan ko‘pqirrali hamkorlikni rivojlantirish muhimligi ta’kidlangan bo‘lib, bu nafaqat resurslar va energiya sohasi, balki siyosiy va xavfsizlik muammolarini ham o‘z ichiga

<sup>1</sup> Dellatte, J. (2023, March 20). <https://www.institutmontaigne.org/en/expressions/global-hydrogen-policy-assessing-japans-hydrogen-society>

<sup>2</sup> Janardhanan, N., Tamura, K., Moinuddin, M., Zusman, E., Jin, Z., & Takizawa, H. (2021). Making Hydrogen Society a Reality in Asia: A Feasibility Assessment (IGES Discussion Paper).

<sup>3</sup> Obayashi, Y. & Golubkova, K. (2023). <https://www.reuters.com/markets/carbon/japan-pledges-financial-support-help-asean-decarbonise-2023-03-04/>

oladi. Mitsubishi Research Institute (MRI) bosh direktori Takashi Endoning ta'kidlashicha, "Yaqin Sharq Osiyo va butun dunyoda energetika xavfsizligi hamda "Net Zero" chaqirig'iga katta ta'sir ko'rsatadigan muhim mintaqadir".

Shu bilan birga, Yaqin Sharqning energiya ta'minotchilari ammiak va vodorod kabi nollik chiqindilarga ega energiya manbalarini tadqiq etish va rivojlantirish dasturlarini boshladi. Qatar 2050, Saudiya Arabistoni 2050 va BAA 2060 yilgacha "Net Zero" strategiyalariga ega<sup>4</sup> bo'lib, ushbu davlatlar bu borada Yaponiyaning ilg'or texnologiyalaridan foydalanishga e'tibor qaratmoqda. Bu, innovasion texnologiyalar orqali mavjud energiya manbalarining salohiyatini maksimal darajada oshirish umumiy manfaatining aks ettirilishi hisoblanadi. Yaponiya o'zining "2050-Vision" rejasi doirasida Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni, Bruney va Avstraliya kabi bir qator mamlakatlar bilan ikki tomonlama shartnomalar imzolagan. 2050 yilgacha uglerod neytrallikka erishish maqsadida Yaponiya Avstraliya, BAA va Saudiya Arabistonidan ko'k va yashil ammiak importini strategik darajada ko'zlamoqda. Xalqaro Energetika Agentligining ma'lumotlariga ko'ra, Ko'rfaz davlatlari 2030 yilgacha yillik bir million tonnagacha past chiqindilarga ega vodorodni eksport qilishni maqsad qilgan.

Ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish yo'lida muhim qadam sifatida, Saudiya Arabistoni va Yaponiya 2023 yil iyul oyida tashqi ishlar vazirlari o'rtasida "strategik muloqot"ni boshlashga qaror qildi. Tokio va Er-Riyod o'rtasida imzolangan 26 ta hamkorlik va anglashuv memorandumlari, unda Tokio Er-Riyadga quyosh energiyasini ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirishga yordam beruvchi ilg'or texnologiyalarni taqdim etish hamda vodorod va ammiakni toza yoqilg'i sifatida qo'llash sohasidagi tajribani o'rganish tashabbusi ushbu qarorni mustahkamladi<sup>5</sup>.

2020 yil aprel oyida "Saudi Arabia Advanced Hydrogen Energy Chain Association for Technology Development (AHEAD)" tomonidan dunyodagi ilk xalqaro vodorod ta'minot zanjiri tashkil etildi. Ushbu loyiha tabiiy gazdan vodorodni ajratib olish orqali metilsiklogeksan (MCh) ishlab chiqarishga qaratilgan edi. Keyinchalik, metilsiklogeksan Yaponiyaga jo'natilib, u yerda suvdan ayirish jarayoni orqali vodorod qayta ishlab chiqariladi. 2020 yil may oyiga kelib, "Mizue Issiqlik Elektr Stansiyasi" gaz turbinasi vodorod bilan ishlay boshladi. Shunday qilib, 2020 yil sentyabrda Saudiya Arabistoni Yaponiyaga tarixda birinchi marotaba 40 tonna uglerodsiz ammiak yubordi. Ilmiy-tadqiqot hamkorligini kuchaytirish maqsadida, 2023 yil 16 iyulda Yaponiyaning IEEJ va "King Abdullah Petroleum Studies and Research Center (KAPSARC)" o'rtasidagi hamkorlik memorandumini uzaytirildi. Saudiya Arabistoni uglerodsiz energiyaga o'tishda muhim rol o'ynaydi va ammiak hamda vodorod ta'minot tarmoqlarini rivojlantirishga faol hissa qo'shmoqda, bu esa uglerod dioksid chiqindilarini kamaytiradi. Atrof-muhitga mos texnologiyalarni

<sup>4</sup> Iwama G. The latest trends of Saudi Arabia, UAE, and Qatar's decarbonization and low-carbon oil, natural gas, ammonia, and hydrogen strategies and Japan's energy diplomacy. Japan Cooperation Center for the Middle East (JCCME), 2023. 7, 9-30.

<sup>5</sup> Koyama, K. (2023b, July 26). <https://eneken.ieej.or.jp/data/11272.pdf>

transfer qilishni targ'ib qilish Yaponiya va Yaqin Sharq mamlakatlari o'rtasidagi diplomatik aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

1973 yilgi neft inqirozidan keyin Yaponiya resurs diplomatiyasi dasturini boshlagani kabi, bu resurslarni ta'minlashga qaratilgan yondashuv ham hududdagi din, etnik, siyosiy sohadagi muammolarga nisbatan sezgirlikni oshirdi<sup>6</sup>. Shunga o'xshash tarzda, Yaponiya 1990-yillardan boshlab Yaqin Sharqda o'z energiya ehtiyojlarini qondirish va o'zaro hamkorlikni kengaytirish uchun o'xshash strategiyani amalga oshirmoqda<sup>7</sup>. Yaponiya hukumati 2050 yilgacha bo'lgan rejani amalga oshirish uchun Ko'rfaz davlatlari bilan munosabatlarni barqaror va atrof-muhitga mas'uliyatli sheriklikka aylantirishda kuchli choralarni amalga oshirish kerakligini yaxshi tushunadi. Bu maqsadga erishish uchun Yaponiya hududdagi tijorat salohiyatini kengaytirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab, buni robototexnika va kosmos sanoatiga strategik investisiyalar orqali sezilarli darajada oshirishni maqsad qilgan<sup>8</sup>.

Yaponiyaning vodorod diplomatiyasi kengroq geosiyosiy va geoiqtisodiy dinamika bilan uyg'unlashgan bo'lib, ayniqsa Xitoyning Yaqin Sharqdagi ta'sirining kengayishi kontekstida muhimdir<sup>9</sup>. Xitoy bu mintaqada Yaponiya uchun strategik aloqalarni saqlashda ustuvorlik berishga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Oxirgi yigirma yil ichida Yaponiya Saudiya Arabistonining eng yirik importyori sifatidagi tijorat o'rni to'rtinchidan oltinchiga tushib ketgani kuzatildi, shu bilan birga BAAga Xitoy eksporti ikki barobardan ziyod oshdi, bu Pekinning ortib borayotgan qudratini ko'rsatadi. Yaponiyaning "Erkin va Ochiq Hind-Tinch Okean" (FOIP) strategiyasi Yaqin Sharqni aniq ko'zda tutmasa-da, hududning geografik ahamiyati va katta energiya resurslari Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi uchun muhimligidan, Yaponiya uchun strategik ahamiyatga egadir.

Yaponiyaning vodorod strategiyasi toza energiya texnologiyalarida yetakchi bo'lish orqali mintaqadagi ta'sirini kuchaytirish imkoniyatini taqdim etadi. Xitoy Ko'rfaz hamkorlik kengashi bilan ko'p tomonlama aloqalarini chuqurlashtirishda davom etar ekan, Yaponiya bu jarayonlarni diqqat bilan kuzatib, energetika sherikliklarini rivojlantirishda samarali raqobatga tayyor turishga harakat qiladi. Vodorod diplomatiyasini kengaytirish Yaponiyaga Xitoyning o'sib borayotgan ta'siriga qarshi turish va global energiya o'tish jarayonida o'z rolini mustahkamlash imkonini beradi, bu orqali iqtisodiy va strategik manfaatlarini uyg'unlashtirib, boshqa global aktorlar tomonidan yuzaga keladigan raqobat bosimlariga javob beradi.

Yaponiyaning barqaror energiya maqsadlari va Yaqin Sharqning ekologik toza texnologiyalariga bo'lgan ahamiyatining uyg'unlashuvi Yaponiyaning energetika xavfsizligi siyosati uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Yaponiyaning shamol

<sup>6</sup> Yokota, T. Japan-Egypt Bilateral Relations: A Main Pillar of Japanese Middle Eastern Policy. In Japan and the Middle East: Foreign Policies and Interdependence, Satoru Nakamura and Steven Wright Palgrave Macmillan 2023. pp. 139-161.

<sup>7</sup> Evron Y. Implications of China's Belt and Road Initiative for Japan's Involvement in the Middle East. Contemporary Review of the Middle East, 5(3), 2018. pp.199-214.

<sup>8</sup> Keidanren. (2022, December 13). [https://www.keidanren.or.jp/en/policy/2022/104\\_proposal.html](https://www.keidanren.or.jp/en/policy/2022/104_proposal.html)

<sup>9</sup> Temiz K. Chinese Foreign Policy Toward the Middle East. Routledge. 2021.

energiyasi sohasidagi malakali tajribasi, Yaqin Sharqning boy yoqilg‘i zaxiralari hamda nol emissiya texnologiyalariga oshib borayotgan qiziqishi bilan birgalikda, energiya sohasida tadqiqot, rivojlanish va joriy etish bo‘yicha muvaffaqiyatli hamkorlikning poydevorini tashkil etadi. Bunday sherikliklar ikki mintaqaning energiya tizimlari yo‘nalishini o‘zgartirish imkoniga ega bo‘lib, global energiya manzarasini barqarorlik va mustahkamlik sari o‘zgarishiga xizmat qiladi. Yaponiyaning vodorod asosidagi diplomatiyasi xalqaro hamkorliklarni mustahkamlash va energiya manbalarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan sa‘y-harakatlarini aks ettirsa-da, energiya siyosatining ichki muvozanatini hal qilish energetik o‘tishining uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy resurslarni taqsimlash va bu boradagi muammolarni hal qilishga qaratilgan siyosatni shakllantirish hozirgi kunda Yaponiya uchun eng muhim energetika xavfsizligi masalalaridir. Hukumatning “netto-nol emissiya”ga erishish maqsadi va sobiq bosh vazir Kishida tomonidan katta “yashil” transformatsiya tashabbusi uchun 1 trillion dollar investisiyani jalb etish taklifiga qaramay, Yaponiya haligacha fosil yoqilg‘ilarga bog‘liqlik darajasi yuqori hisoblanadi. Yaponiya fosil yoqilg‘i importiga, ayniqsa, Yaqin Sharq neftiga bog‘liqligi tufayli mintaqadagi geosiyosiy, geoiqtisodiy va energiya narxlari bilan bog‘liq tebranishlarga o‘ta ta‘sirchidir. Bu Yaponiya uchun ichki barqaror energiya resurslariga sarmoya kiritish va energiya manbalarini diversifikatsiya qilishning qanchalik ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi muhim omil sifatida AQShning Yaponiya tashqi siyosatiga katta ta‘siri qayd etiladi. Bu esa Yaponiyaning Yaqin Sharqdagi mojarolar va inqirozlar davrida mustaqil siyosat yuritish imkoniyatini cheklaydi. 1970-yillardagi energiya inqirozlaridan keyin Yaponiya uzoq muddatli tashqi energetika siyosatini yaxshilash orqali energiya talabini barqaror ta‘minlash imkoniyatiga ega bo‘ldi<sup>10</sup>. Biroq Yaponiyaning mustaqil Yaqin Sharq siyosati uning asosiy ittifoqchisi va dunyodagi eng yirik energiya iste‘molchisi bo‘lgan AQSh bilan murakkab munosabatlariga bog‘liq holda shakllanmoqda. Yaponiya tashqi siyosati an‘anaviy ravishda milliy xavfsizlikka, xususan hududiy yaxlitlik va mintaqaviy barqarorlikka ustuvor ahamiyat qaratsa-da, energetika xavfsizligi Yaponiya uchun juda muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki mamlakat tashqi energiya resurslariga katta bog‘liqlikka ega. Shu boisdan Yaponiya uchun energetika xavfsizligi milliy xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikning asosiy elementi hisoblanadi. Shu jihatdan Yaponiya uchun Yaqin Sharqning neft ishlab chiqaruvchilari bilan barqaror va mustaqil munosabatlarni saqlash zarur, bu esa uni AQSh siyosatidagi o‘zgarishlar yoki global bozorlardagi tebranishlarga moslashuvi zarurligini taqazo etadi. Shunday qilib, Yaponiyaning mintaqadagi mustaqil siyosati nafaqat diplomatik manyovr, balki uning uzoq muddatli xavfsizligi va iqtisodiy barqarorligi uchun strategik zaruratdir.

<sup>10</sup> Doğrul M. “Filistin-İsrail Sorununun Muhtemel Arabulucu Aktörü Olarak Japonya’nın Kapasitesi/ İmkanları”. Filistin Araştırmaları Dergisi, 5. 2019. 81-101.

Yaponiya qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni oshirish maqsadida ilmiy-tadqiqot va rivojlantirish loyihalarida faol ishtirok etmoqda. Uzoq muddatli muhim maqsadlardan biri shamol energiyasi 10 gigatonnani tashkil etishi bo'lib, bu mamlakatning qayta tiklanadigan energiyadan elektr ishlab chiqarish hajmining 5% ni ta'minlaydi.

Yaponiyaning qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etishga qaratilgan sa'y-harakatlari, energiya transformatsiyasi maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan tashqi resurslarga bog'liqlik tufayli ma'lum darajada cheklangan. Shunday bo'lsa-da, Yaponiyaning katta texnik salohiyati bu to'siqlarni yumshatib, uni Sharqiy Osiyo mintaqasida energiya o'zgarishlarini rivojlantirishda yetakchi aktorlardan biriga aylanish imkonini beradi. Shu bilan birga, Yaponiya Yaqin Sharqning neft ishlab chiqaruvchi davlatlari bilan barqaror institusional aloqalar o'rnatishning juda muhimligini anglaydi, bu esa energetika xavfsizligi, atrof-muhitni transformatsiya qilish va tashqi siyosat dinamikasining murakkab o'zaro ta'sirini samarali tarzda boshqarishga qaratilgan strategik yondashuvdir.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, Yaponiyaning energetika strategiyasi Sharqiy Osiyo va Yaqin Sharq bilan o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Bu mintaqalardagi strategik sherikliklar energiya ta'minotini ta'minlash va texnologik hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda, bu Yaponiyaning energiya transformatsiyasida xalqaro hamkorlik ahamiyatini ko'rsatadi. Yaponiyaning "yashil" energetika borasidagi qat'iy pozitsiyasi va sa'y-harakatlari energiya resurslari qaramligini kamaytirishga qaratilgan kengroq maqsadlari bilan uyg'unlashadi. Ammo bu maqsad yo'lida muayyan muammo va to'siqlar bor. Yaqin Sharq gaz va neft importlariga bog'liqlik, vodorod ishlab chiqarishning yuqori xarajati va energiya iste'molida yadroviy energiya ulushini saqlab qolgan holda qayta tiklanadigan energiya manbalarini integratsiyalashning murakkabligi ushbu muammolarning asosini tashkil etadi.

Yaponiyaning "yashil energetika"ga yo'naltirilgan ko'p qirrali yondashuvi 2050 yil maqsadlariga erishish va barqaror energetika siyosatida yetakchi mamlakat sifatida mavqeini mustahkamlash uchun muhimdir. "Yashil energetika" inqilobida Yaponiya yetakchilik qilib, nafaqat o'z energetika xavfsizligini ta'minlaydi, balki Osiyo va global dunyodagi geoiqtisodiy dinamikani shakllantirish imkoniga ega bo'ladi. Biroq, iqtisodiy-energetik xavfsizlik ekologik va iqlim xavfsizligidan ustun bo'lib qolmasligi uchun ustuvorliklarni qayta muvozanatlash zarur. Qayta tiklanadigan infratuzilmani rivojlantirish, "yashil energetika diplomatiyasi"ni diversifikatsiya qilish va texnologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali Yaponiya o'z iqtisodiy va ekologik maqsadlarini samarali tarzda uyg'unlashtirib, global energetika transformatsiyasiga salmoqli hissa qo'sha oladi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. Doğrul M. "Filistin-İsrail Sorununun Muhtemel Arabulucu Aktörü Olarak Japonya'nın Kapasitesi/ İmkanları". Filistin Araştırmaları Dergisi, 5. 2019. 81-101.

2. Endo K., Murashkin N., Japan's infrastructure export and development cooperation: the role of ODA loan projects in the 2010s, *Aust. J. Int. Aff.* 77 (2) (2023) 129-149.

3. Evron Y. Implications of China's Belt and Road Initiative for Japan's Involvement in the Middle East. *Contemporary Review of the Middle East*, 5(3), 2018. pp.199-214.

4. Fumitaka Furuoka. *A History of Japan's Foreign Aid Policy: From Physical Capital to Human Capital*. School of Business and Economics Universiti Malaysia Sabah, 2007.p. 21.

5. Iwama G. The latest trends of Saudi Arabia, UAE, and Qatar's decarbonization and low-carbon oil, natural gas, ammonia, and hydrogen strategies and Japan's energy diplomacy. *Japan Cooperation Center for the Middle East (JCCME)*, 2023. 7, 9-30.

6. Obayashi, Y. & Golubkova, K. (2023). <https://www.reuters.com/markets/carbon/japan-pledges-financial-support-help-asean-decarbonise-2023-03-04/>

7. Temiz K. *Chinese Foreign Policy Toward the Middle East*. Routledge. 2021.

8. Yokota, T. *Japan-Egypt Bilateral Relations: A Main Pillar of Japanese Middle Eastern Policy*. In *Japan and the Middle East: Foreign Policies and Interdependence*, Satoru Nakamura and Steven Wright Palgrave Macmillan 2023. pp. 139-161.